

SIRDARYO VILOYATI BOYOVUT TUMANI

13 - UMUMTA'LIM MAKTABI



Boshlang'ich sinf o'qituvchisi


FAYZIYEVA MOXIRANING

O'zbekiston Respublikamiz mustaqilligining

23 yilligiga bag'ishlangan

**“YAGONASAN, MUQADDAS VATANIM, SEVGI VA
SADOQATIM SENGGA BAXSHIDA, GO'ZAL
O'ZBEKISTONIM” shiori ostida**

DARS ISHLANMASI



1. Ozod va hur O'zbekistonning bahtiyor farzandiman.

Darsning ta'limiy maqsadi: Vatan tuyg'usini mukamallashtirish. Vatan yagona muqaddasligini anglash.

Tarbiyaviy maqsadi: O'quvchilarning ma'naviy salohiyatini boyitish. Vatan ravnaqi, istiqbolini mohiyatini anglash.

Rivojlantiruvchi maqsad: Sog'lom bola, sog'lom fikrli barkamol avlod timsolini o'zida mujassamlantirish.

Dars jihozi: Kompyuter, multimediyalar, buklet. "Mustaqillik sarhadlari" al'bomi.

Dars qahramoni: Sog'lomjon, Polvonjon, Shiddat boshlovchi.

Dars turi: Interfaol. Klaster usuli

Dars tipi: Bahs – munozara, mushoira.

Darsning borishi:

Birinchi bosqich.

I. Tashkiliy qism – darsga tayyorlanish

Davomatni aniqlash

Salomatlik me'yorlarini esga olish

Ikkinchi bosqich:

II. O'tgan mavzu – Vatan haqida fikr mulohazalar

Boshlovchi: Vatan nima? – Vatan kindik qonimiz to'kilgan joy.

Biz yashab ulg'ayotgan muqaddas dargoh.

"Zanjir" – o'yini. Vatan haqida maqollar.

"Sog'lomjon" "Polvonjon" "Shiddat" guruhlari

Ona yurti – oltin beshiging

Ona yurti omon bo'lsa,

Rangi ro'ying somon bo'lmas.

Bulbul chamanni sevar

Odam Vatanni sevar.

Ona – Vatan muqaddas

Vatani borning baxti bor.

O'zga yurtida shoh bo'guncha,

O'z yurtida gado bo'l.


Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir.

Sog'lomlashtirish mashqlari.

Uchinci bosqich – Yagi mavzu bayoni

Ozod va hur O'zbekistonning baxtiyor farzandiman.

Boshlovchi: Vatan madhini ayting



Boshlovchi: O'quvchilar biz qayerda yashaymiz?

I-o'quvchi: Biz mustaqil O'zbekistonda yashaymiz.

Boshlovchi: Vatanimiz qahramonlarini bilasizmi?

O'quvchilar.

"Sog'lomjon" "Polvonjon" "Shiddat" guruhlari

Men Shiroqman Men To'maris Men Najmiddin

Vatan uchun Vatan uchun Kubro
Dilbandidan Xorazm elim
Kechgan og'ir paytda
Tashlab ketmagan
Barakalla!

O'qituvchi: Ifodali, ravon yoddan aytilgan guruhni izohli baholandi.

Boshlovchi: Guruhlar “ Bahtiyorlik” hissini she'r bilan ifoda etishadi.

“Sog'lomjon” guruhi

Ko'zim to'la hayojon,
Yurtimda gul bolaman.
Labimda so'zlar jahon
Sog'lom bola bo'laman

“Polvonjon” guruhi

Tuproq gullar izimda,
Uyga borar yo'ldaman.
Baxt yozilgan yuzumda,
Sog'lom bola bo'laman.
“Shiddat” guruhi
Bog'cham, maktab bo'stonim
Nurga to'lgan qo'ldaman.
Oyim, dadam – ostonim,
Sog'lom bola bo'laman.


O'quvchi: Bahtiyorlik

Chaqnab turara yulduzlar,
Oy qoshidan jilmasdan,
Inoq bizning oila,
Hamma shunga havasda.

O'quvchi

Ota –onam suyanchim,
Singillarim mehribon.
Ahillikda gap kata,
Biz baxtli albatta.

To'rtinchi bosqich: Baxs – munozara.



Boshlovchi: Mustaqillik shiorini bilasizmi?

O'quvchilar: Yagonamsan mustaqil Vatanim, sevgi va sadoqatim senga baxshida go'zal O'zbekistonim!



Beshinchi bosqich: Baholash

Guruhlar olgan rag'bat kartyochkalari jamlanib g'oliblar aniqlanib, o'quvchilar baholanadi.

Oltinchi bosqich: Uyga vazifa.

Ozod va hur O'zbekistonning bahtiyor farzandiman tushunchasini zavqlanib, guruhlanib anglash.

2. Mustaqil yurt bayrog'ini baland ko'taraylik.

Darsning maqsadi:

Ta'limiy maqsad: O'zbekiston ramzlaridan g'ururlanib balandlarga ko'taraylik

Tarbiyaviy maqsad: Mustaqillik sarhadlaridan zavqlanib, g'liblar O'zbekiston bayrog'ini barcha davlatlarga tanishtirish baxtiga muyassar bo'lishlarini mazmunan anglash.

Rivojlantiruvchi maqsad: Yutuqlarimizdan g'ururlanib bayrog'imizni balandlarga mag'rur ko'tarish biz sog'lom, barkamol avlodning qo'lida bo'lishiga erishish.

Dars turi: Aralash.

Dars tipi: Noan'anaviy dars o'tilishning munozara usuli.

Dars jihozi: Bayrog'imiz – g'ururimiz timsoli bukleti. Davlatimiz ramzlari – multimediya.

Dars qahramonlari: Boshlovchi. G'ururbek, Mag'rurbek, G'olibjon.

Darsning borishi:

Birinchi bosqich – Tashkiliy qism. Guruhlarga bo'linadi.

Darsga tayyorlanish – Madhiya.

Salomatlik me'yorlari.

1. Badan tarbiya – Kuch etar hadiya
2. Hom suv ichma – Sog'likdan kechma
3. Sog' yuray desang – ozoda yur!

Ikkinchi bosqich – O'tgan mavzuni mustaxkamlash.

Assolomu alaykum bolajonlar!!!

Boshlovchi: Darsingiz nima?

I-o'quvchi: Mustaqillik darsi.

G'ururbek:

Salom do'stlar –Bu yil qanday nomlanadi?

II-oquvchi:

2014 yil – Sog'lom bola yili.

Boshlovchi: Shioringiz nedur?

“G'urur” guruhi.

Istoqboldan so'zlaymiz,
Yurt ravnaqin ko'zlaymiz.
Tolmay mehnat qilamiz,
Sog'lom bola bo'lamiz

“Mag'rur” guruhi:

Ona diyor bizniki,
Gulshan diyor bizniki.
Obod hayot quramiz
Sog'lom bola bo'lamiz.

“G'olib” guruhi:

Doim mag'rur g'olibmiz,
Dior madhin kuylaymiz.
Zakovatli bo'lamiz,
Sog'lom bola bo'lamiz.

O'qituvchi:

Qadrdon o'quvchilar Bugun qanday bayramni nishonlayapmiz?

III-oquvchi: 1- sentabr – Mustaqillik bayrami. Bu yil Mustaqilligimizning 23 yil to'lganlini nishonlayapmiz.

IV-oquvchi: M. Yusuf
Men dunyoni nima qildim
O'zing yorug' jahonim,
Vatanim o'zim haqon
O'zim sulton
Sen taxti Sulaymanim.

Yolg'izim, Yagonam deymiz
Tanimda Koshonam daymiz
O'zing mening ulug'lardan
Ulug'imsan, Vatanim.

Boshlovchi: "Kim topadi" didaktik o'yini o'tkazamiz.

Bu she'r muallifi kim?

V-oquvchi: Bu she'r taniqli shoirimiz Muhammad Yusufning "Vatanim" she'ri.

Sog'lomlashtirish daqiqasi.

Uchinchi bosqich: Yangi mavzu bayoni.

Mustaqil yurt bayrog'ini baland ko'taraylik.

Multimediya – bayroq ta'rifi eshittiriladi.

O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining navbatdan tashqari o'tkazilgan VII-sessiyasida 1991 yil 18 noyabr kuni tasdiqlangan. Davlat bayrog'i va uning ramzi bugungi O'zbekiston sarhadida qadimda mavjud bo'lgan davlatlar bilan tarixan bog'liqligini anglatadi, hamda respublikaning milliy – madaniy an'analarini o'zida mujassamlashtiradi.

Bayroqdagi moviy rang –tiriklik mazmuni aks etgan mangu osmon va obi hayot ramzidir.

Timsollar tilida bu – yaxshilikni donishmandlikni, halallikni shon-shuxrat va sadoqatni bildiradi. Binobarin, Amir Temur davlati bayrog'ining rangi ham moviy rangda edi.

Bayroqdagi oq rang – muqaddas tinchlik ramzi bo'lib, u kun charog'onligi va koinot yoritqich bilan uyg'unlashib ketadi.

Oq rang – poklik, beg'uborlik, soflikni, orzu va xayollar tozaligi, ichki go'zalikka intilishi timsolidir.

Yashil rang – tabiatning yangilanish ramzi u ko'pgina xalqlarda navqironlik, umid va shodumonlik timsoli hisoblanadi.

Qizil chiziqlar vujudimizda jo'shib oqayotgan hayotiy qudrat irmoqlaridir. Yulduzlar barcha uchun ruhoniyl ilohiy, timsol sanalgan.

O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'idagi 12 ta yulduz tasviri ham tarixiy an'analarimiz, qadimdagi quyosh yilnomamizga bevosita aloqadormiz. O'zbekiston sarhadidagi qadimgi davlatlar ilmiy tafakkurida "Nujum ilmi" taraqqiy etganligi bilan ham izohlanadi.

Davlat bayrog'imizdagi 12 yulduz tasvirini o'zbek xalqi madaniyati qadimiyligi, uning komilikka, o'z tuprog'ida saodatga intilish ramzi sifatida tushinish lozim.

Boshlovchi:

Bayrog'imiz qayerda, qachon ko'rgansiz?

VI-oquvchi:

Bayrog'imiz ulug' bayramlarda hilpirab turadi.

VII-o'quvchi: Yurtboshimiz chet ellarga mehmonga borganlarida G'urur bilan O'zbekiston bayrog'ini O'zbekiston hurmati uchun baland ko'tariladi.

VIII-o'quvchi: Spotchilarimiz musobaqalarda dunyoning qaysi tomonida bo'lmasin O'zbekiston bayrog'ini g'rur bilan g'oliblar sharafiga ko'tariladi.

Sarvinoz Qurbonboyeva Boyovutlik chempion opamiz 15 karra Osiyo, jahon chempionatlarida g'olib bo'lganlarida g'olib chempion sharafiga O'zbekiston bayrog'i ko'tarilgan. Biz Sarvinoz Qurbonboyeva bilan faxrlanamiz.

To'rtinchi bosqich: - Bahs –munozara

Shiddat:

Do'stlar bayrog'imizni g'rur bilan baland ko'tarish uchun nima ishlar qilamiz?

IX-o'quvchi: A'lo baholarga o'qib fanlar olimpiadalarda g'olib bo'lsak, O'zbekiston bayrog'i g'oliblar sharafiga ko'tariladi.

X-o'quvchi: Sport bo'yicha champion bo'lib, g'olib bo'lsak, g'oliblar sharafiga davlat bayrog'i ko'tariladi.

XI-o'quvchi:

Bayrog'imizni g'rur bilan baland ko'tarish uchun ziyoli, zakovatli, qobiliyatli, iftixorli sportchilar bo'lishga harakat qilishimiz lozim. O'zbekiston Davlat bayrog'i yuqori cho'qqilrgacha baland g'rur bilan ko'tarish. Biz sog'lom, barkamol avlodning qo'lidadir.

Beshinchi bosqich:

O'quvchilar guruhlariga qobiliyatlariga, faolligi izohli baholanadi.

Oltinchi bosqich: Uyga vazifa.

O'zbekiston davlat bayrog'i haqidatushunchalarni boyitish. She'r o'rganib kelish.

3. Buyuk yurtning munisib farzandlarimiz.

Darsning maqsadi:

Ta'limiy maqsad: Ota - onasiga vataniga munosib farzand bo'libvoyaga etish uchun barkamol, sog'lom bo'lishni mazmun – mohiyatini anglash.

Tarbiyaviy maqsad: O'quvchilarni ma'naviy salohiyatlarini boyitish mazmuni.

Rivojlantiruvchi maqsad:

Ajdod- avlodlariga munosib farzand bo'lish mohiyatini anglash. Ota –onasi, avlodlari yuzini yorug' etish mazmun-mohiyatini ozida mujassamlashtirish.

Dars turi: Aralash.

Dars tipi: Noan'anaviy dars o'tilishning munozara usuli.

Dars jihozi: “Mustaqil O'zbekiston”, “Ozod, obod Vatanim” bukleti. O'zbekiston prezidenti portreti, O'zbekiston Davlat ramzlari, kompyuter multimedialaridan foydalaniladi.

Dars qahramonlari: Boshlovchi. Gulxanjon.

Darsning borishi:

Birinchi bosqich – Tashkiliy qism.

Darsga tayyorlanish.

Salomatlik me'yorlarini eslash.

Salomatlik haqida maqollar:

Sog' tanda sog'lom aql.

Salomatlik tuman boylik.

So'glinging -boylinging

Ikkinchi bosqich – O'tgan mavzuni mustaxkamlash.

Boshlovchi: Salom do'stlar darsingiz nedur?

I-o'quvchi: Mustaqillik darsi.

Gulxanjon:

Shioringiz nedur?

O'quvchilar:

Zakovatli, ziyoli

Qbiliyatli, barkamol

Dono, iqtidorli bo'lamiz

Sog'lom bola bo'lamiz

O'qituvchi: Aziz bolajonlarim

Doim niyatingizga eting.

Ikkinchi bosqich: O'tgan mavzunu mustahkamlash.

Boshlovchi: Mustaqillik ne degani bolalar.

II-oquvchi: Mustaqillik ne degani

Ne degani – Istiqlol

Oz erking, o'z qo'lingda

Hayoting obod degani

Sesan mening baxt – iqbolim,

Bo'lsin mangu istiqlolim

III-o'quvchi: O'zbekiston mustaqilligiga 23 yil to'ldi

IV-oquvchi: O'zbekiston Prezidenti yurtboshimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov sog'lom, barkamol avlod uchun barcha sharoitlar yaratib berdilar. Qanchadan – ancha iqtidorli, qobiliyatli yoshlarimiz O'zbekistonni jahonga tanitdi.

Y-oquvchi:

Tarixingiz ming asrlar,
Ichra pixon O'zbekim.
Senga tengdosh Pomur-u,
Oqsoch Tiyonshon O'zbekim
So'zlasin Afrosiyob-u
So'zlasin O'zxun –Xati
Dur-u gavxar shodasiga
Bitta marjon O'zbekim.

“Kim topadi” – didaktik o'yini

VI-o'quvchi: Bu misralar “O'zbekim” –Erkin Vohidovning she'ridan olingan.

O'qituvchi: Barakalla! Rag'batini topshiradi.

Gulxanjon: Ona diyor madhini

Kuylaylik do'stlar

VII-o'quvchi: Yashna, yuksal, diyorim,
Sensan baxtim, bahorim.
Madhing jo'shib kuylaymoq,
Ko'ngildagi shiorim.

VIII-o'quvchi: Go'zal gulshan bog'laring,
Go'zal ulkan tog'laring
Dilga orom berguvchi
Charog'on har yoqlaring.

IX-oquvchi: Sen tandagi jonimsan
Tomirdagi qonimsan.
Mehring yashar qalbimda,
G'ururim ham shiorim

Uchinchi bosqich: Yangi mavzu bayoni.

Buyuk yurtning munosib farzandlarimiz.

“Zakovot” bahsi.

“Alpomish”

guruhi

Vataniga munosib farzand bo'lish me'yorlarini ayting.

1. Matonatli
2. Rostgo'y
3. Vijdonli
4. Mard
5. Jasur
6. Shiddatli
7. Botir
8. Sadoqatli
9. Bardoshli
10. Sabrli
11. Mehrli
12. G'amxo'r
13. Qobiliyatli
14. Iqtidorli
15. Komil
16. Sog'lom fikr

“Barchinoy”

guruhi

1. Latofatli
2. Sabr toqatli
3. Sadoqatli
4. Bardoshli
5. Orasta
6. Ibo-hayoli
7. Pazanda
8. Do'zanda
9. Iqtidorli
10. Iste'dodli
11. Himmatli
12. Saxovatli
13. Mahoratli
14. Mehr-oqibatli
15. Qadrli
16. Oriyatli

17. Jismonan sog'lom
18. Barkamol
19. Ajdod-avlodlarni yuzini
yorug' etuvchi
20. Vatanga ota-onasiga
munosib farzand
21. Vatani uchun jonini fido
etuvchi soliq farzand bo'lish

17. Farosatli
18. Fazilatli
19. Ota-onasini yuzini
yorug' etuvchi
20. Vatanga ota-onasiga
munosib farzand
21. Vataniga, ota-onasiga
munosib farzand bo'lish

O'qituvchi:

“Alpomish” guruhi qatnashchilari g'olib deb topilib, rag'batlantiriladi.

To'rtinchi bosqich: - Bahs –munozara

Buyuk yurtning munosib farzandlarimiz.

Gulxanjon: Do'stlar yurt farzandi bo'lish mezonlarini bilasizmi?

“Zanjir” didaktik o'yini

“Alpomish”

guruhi

1. A'lo oqish
2. Tartib-intizomli
3. Qobiliyatli
4. Iqtidorli
5. Komil
6. Sog'lom

“Barchinoy”

guruhi

1. A'lo hulqi
2. Zakovatli
3. Mahoratli
4. Salohiyatli
5. Barkamol
6. Sog'lom fikrli
7. Oliyjanob inson bo'lish

O'qituvchi: “Barchinoy” guruhi g'olib deb topilib izohli rag'batlantirildi.

Beshinchi bosqich: Baholash

Iqtidorli, faolligi inobatga olinib ijobiy baholanadi.

Oltinchi bosqich: Uyga vazifa.

O'quvchilar avlod-ajdodlariga, Vataniga, Ota-onasiga, mustaqil yurtiga munosib har tomonlama rivojlangan barkamol avlod timsolini yaratishni o'zida mujassamlantirish. Sog'lom fikrli, barkamol avlod mezonlarini o'rganib amal etish.

4. Onadek aziz g'amxo'r va mehribon Vatan

Darsning maqsadi:

Ta'limiy maqsad: Onadek muqaddas, mo'tabar, yagona Vatan qadrini, madhini, ta'riflash.

Tarbiyaviy maqsad: Vatanparvarlik salohiyatini boyitish, sog'lom fikrli, barkamol avlod timsolini o'zida mujassamlashtirish.

Rivojlantiruvchi maqsad:

Vatan – ona sajdagoh kabi –muqaddasligini mazmunan anglash.

Dars turi: Interfaol, klaster usuli.

Dars tipi: Baxs

Dars jihozi: Kompyuter, "Vatanim" bukleti.

Dars qahramonlari: Boshlovchi. Donojon, Zakovat, Oqilbek.

Darsning borishi:

Birinchi bosqich – Tashkiliy qism.

Darsga tayyorlanish.

Sog'lom bola me'yorlarini eslash.

1. Osib kata bo'lmoq va voyaga etmoq
2. Ulg'aymoq va do'stlashmoq
3. Qadrli va e'zozli bo'lish

Ikkinchi bosqich – O'tgan mavzuni mustaxkamlash.

Ifodali o'qish tanlovi

"Alpomish"

guruhi

O'zbekiston, Nurli bo'ston
Noming sening
Tilda doston
Senga hurlik
Omon keldi
Eling kutgan
Zamon keldi

"Barchinoy"

guruhi

Jaxon ichra yagonamsan
Xalqing ulug'
Mardonasan
Sensan mening
Baxt -iqbilim
Bo'lsin mangu
Istiqlolim


O'qituvchi: Ikkala guruh ishtirokchisini ifodali, yoddan aytganligi uchun rag'batlantiriladi.

Uchinchi bosqich: Yangi mavzu bayoni.


Zakovat: Do'stlar "Vatan", "Ona" so'zlariga ta'rif beramiz

"Zakovot" bahsi.

"Alpomish" guruhi



“Barchinoy” guruhi



O'qituvchi:

Guruh ishtirokchilarni rag'batlantirib, Vatanni, onasini sevib ardoqlagandek, e'zozlashga, Vatani onasi uchun jonini fido etuvchi komik inson bo'lishga chorlaydi.

Donojon: Do'stlar “Ona”, “Vatan” ta'rifini madhini kuylaymiz.

Oquvchilar:

Mehri daryo onasiz,

So'zlari durdonasiz.

Eng aziz hamxonasiz,

Onajonim sog' bo'ling.

Nur jaxonim sog' bo'ling!

Siz bizning baxtimiz,

Boyligimiz taxtimiz.

Sizga xizmat axdimiz,

Onajonim sog' bo'ling.

Jonajonim sog' bo'ling!

O'quvchi:

Vatanim – quyosh

Boshimni silar.

U menga ko'z – qosh

Iqbolim tilar.

Quv nab erkin shod,

Bo'lamiz kata

Baxt bor umrbod

Tinch mamlakatda.

To'rtinchi bosqich: - Bahs –munozara

O'qituvchi: Onadek aziz, g'mxo'r va mehribon Vatanimiz quchog'ida o'sib ulg'ayib, farovon hayot kechirayapmiz. “2014 yil – Sog'lom bola yili” –deb e'lon qilinib kelajagimiz jismonan sog'lom va sog'lom fikrli bo'lish chora tadbirlari olib bormoqda. Yangi maktablar sport inshootlar, sport maktablari siz uchun. Yurtimiz rahbarligida bolalar uchun mehribonlik, g'mxo'rlik ko'rsatilib, sog'lom fikrli, barkamol avlod timsoli yaratish sizning qo'lingizda.

Oqilbek: “Farzandlari sog'lom yurt qudratlidir” bu dono fikrlar muallifi kim bilasizmi?

O'qituvchi: Bu fikrlar, muhtaram yurtboshimiz biz bolalarni jismonan so'g'lom, sog'lom fikrli, har tomonlama rivojlangan ma'naviy salohiyatli barkamol bo'lishimiz uchun qanchadan-qancha g'amxo'rlik ko'rsatishib, sog'lom avlod uchun tinch obod, farovon hayotni ta'minlab kelishayapti. Qanchadan-qancha oromgohlarda dam oldingiz.

O'quvchi: Buning uchun Vatanimiz yurtboshimizdan juda minnatdor.

O'quvchilar:

Yurtboshimiz sog' bo'ling,

Baxtimizga bor bo'ling.

Ishonchingiz oqlaymiz,

Sizga, Vatanimizga, ota-onamizga

Munasib farzand bo'lamiz.

Beshinchi bosqich: Baholash Ziyrak va faol o'quvchilar baholanadi.

Oltinchi bosqich: Uyga vazifa. Ona Vatanni muqaddas bilish, qadrlash va e'zozlash.

5. Yurtimizning so'lim oromgohlarida miriqib dam olish.

Darsning maqsadi:

Ta'limiy maqsad: Madaniy salohiyatlarini rivojlantirish..

Tarbiyaviy maqsad: Barkamol avlod farovon hayotlarini zavqli o'tishini anglash.

Rivojlantiruvchi maqsad: Mustaqil yurtimiz oromgohlarida, zavqli, maroqli dam olishning madaniyatini anglash.

Dars turi: Aralash.

Dars tipi: Munozara, baxs.

Dars jihozi: "Ertaklar olami", "Baxtli bolalar" bukletlari.

Dars qahramonlari: Donoxon, G'unchaoy.

Darsning borishi:

Birinchi bosqich – Tashkiliy qism.

Darsga tayyorlanish.

Salomatlik me'yorlarini eslash.

1. Badan tarbiya – Kuch etar hadiya
2. Sog' yuray desang –Sport bilan shug'ullan.
3. Salomatlik tuman boylik

Ikkinchi bosqich – O'tgan mavzuni mustaxkamlash.

1. Sport – tinchlik elchisi
2. Sport turlarini aytish

"Zanjir" didaktik o'yini

"Alpomish"

guruhi

1. Futbol
2. Gandbol
3. Basketbol
4. Qo'l to'pi

"Barchinoy"

guruhi

1. Shaxmat
2. Shashka
3. Suzish
4. Kurash
5. Tennis

O'qituvchi: G'olib guruh rag'batlantiladi.

G'unchaoy:

Keling do'stlar ifodali o'qish tanlovini o'tkazamiz.

Bog'imizda atie gul,

Chaman bo'lib ochildi.

Uning xushbo'y hidlari,

Har tomonga sochildi.

Gulga oshiq bulbullar

Shul bog' ichra jamlandi.

Bir-biridan yoqimli

Ajib kuylar boshlandi.

Kuylang jajji bulbullar,

Ochilsin barcha gullar

Ozodlik kuyin chaling

Barcha olsin ko'ngillar.

Ona diyor bizniki,

Gulshan diyor sizniki.

Ketmang sira bulbullar,

Yurti yuron bizniki.

O'qituvchi ifodali o'qigan o'quvchilarni izohli rag'batlantirdi.
Sog'lomlashtirish mashqlari.

Uchinchi bosqich: Yangi mavzu bayoni.

Yurtimizning so'lim oromgohlarida miriqib dam oldik.

“Alpomish”

guruhi

“Barchinoy”

guruhi

Kim qayerda dam olganligini aytishadi

“Shodlik”

“Quvonch”

Sog'lomlashtirish oromgohlarida miriqib dam olgan ta'ssurotlarini aytishadi

Kun tartibi

- 6⁰⁰-6³⁰
1. Uyqudan turish
 2. Badan tarbiya
 3. Nonushta
 4. Qiziqarli o'yinlar
 5. Tushlik
 6. Uyqu
 7. Sayr
 8. Sport o'yinlari
 9. Musiqiy daqiqa
 10. Kechki uyqu

Tarbiyachi, enagalar nazoratida o'quvchilar oromgohdagi vaqtlarini unumli o'tkazishadi. Cho'milishga olib boriladi. Sayr vaqtida tabiat mo'jizalari bilan tanishadi. Guruhlarga bo'linib musobaqalar, bellashuvlar o'tkazishadi. G'oliblar rag'batlantiriladi. Yar bir o'quvchi ozodali, sog'ligi ovqatlanishi uchun ma'sul shaxslar ish olib borishadi. To'g'ri ovqatlanish sog'ligi –tibbiyot hodimlari tomonidan nazorat etiladi. Sog'lom fikrli, barkamol avlod ta'til kunlarini maroqli o'tkazishlari uchun barcha sharoitlar yaratilgan.

To'rtinchi bosqich: - Bahs –munozara

O'quvchilar ta'til vaqtlarini samarali, maroqli o'tkazishganlarini o'zaro o'rtoqlashadi.

G'unchaoy: Hayvonot bog'i Istirog'at bog'iga brogan o'quvchilar fikrini ham qiziqib so'raydi.

Beshinchi bosqich: Baholash

Qaysi o'quvchi ko'p ta'ssurotlar eslab qolganligiga qarab, faol o'quvchilar baholanadi.

Oltinchi bosqich: Uyga vazifa.

Yozgi maroqli dam olish ta'ssurotlarini yozib kelish.

6. Shodon bolalik uchun biz Vatandan minnatdormiz

Darsning maqsadi:

Ta'limiy maqsad: O'quvchilarning ma'naviy salohiyatlarini boyitib Vatanga minnatdorlik ruhini mazmun mohiyatini anglash.

Tarbiyaviy maqsad: Baxtli, shodon bolalik nashidasini zavqlanib his etish.

Rivojlantiruvchi maqsad:

“Ozod, obod, baxtiyor kunlarimiz uchun Vatanimizdan minnatdormiz” so'zlarini mazmun mohiyatini chin dildan his etish.

Dars turi: Aralash, klaster.

Dars tipi: Mushoira.

Dars jihozi: Radio, player, “Baxtli bolalik” bukleti.

Dars qahramonlari: G'unchaoy, Gulxanjon.

Darsning borishi:

Birinchi bosqich – Tashkiliy qism.

Darsga tayyorlanish.

Sog'lom bola mezonlari.

1. Ozodalik koni foyda
2. Orasta, pokiza bo'lish lozim
3. Saromjon, sarishta bo'lish lozim lozim. Vatanga tarbiya
4. Kuch etar hadiya

Ertalab badan tarbiya bilan shug'ullanish.


Sport turidan biri bilan muntazam shug'ullanish.

Salomatlik mezonlaridir.

Ikkinchi bosqich – O'tgan mavzuni mustaxkamlash.

“Alpomish” guruhi





O'qituvchi: “Barchinoy guruhini g'olib deb topildi.

Uchinchi bosqich: Yangi mavzu bayoni.

Shodon bolalik uchun biz Vatandan minnatdormiz.

G'unchaoy: Keling do'stlar ifodali, o'qish tanlovi o'tkazamiz.

“Vatanim - Vatanim” P. Mo'min.

“Alpomish” guruhi: Vatanim –Vatanim,
Ko'zim quvnab ko'rganim.
Istiqloldan kulganim
O'zbekiston Gulshanim!

“Barchinoy” guruhi: Bahra olib bag'ringdan,
Ulg'yaman mehringdan.
Vatanjonim – Vatanim
O'zbekiston Gulshanim

O'qituvchi she'ri ifodali, ma'noli o'qigan o'quvchilarni rag'batlantiradi.

Biz Vatanning ertasi. M. Qodir.

I-o'quvchi:

Quvnoq o'g'il – qizlarmiz,
Yerdagi yulduzlarmiz.
Kelajakni ko'zlarmiz,
Biz Vatanning ertasi.

II-o'quvchi:

Temirning avlodimiz
To'maris zurriyodimiz.
Tinchlikdir murodimiz,
Biz Vatanning ertasi.

To'rtinchi bosqich: - Bahs –munozara

O'qituvchi: Shodon, baxtli –bolalik. Unitilmas voqealarga boy. Sarguzashtlarga to'la bo'ladi.

G'unchaoy: Keling do'stlar baxtli bolalikdagi unitilmas zavqli, voqealarni eslaymiz.

Gulxanjon:

Bolalik eng zavqli hayotimiz onlari.

Baxtiyor bolalik – duru, gavxarlarga alishmasman

Kapalaklar bilan o'ynab,

Gul kabi uxlab qolasan.

G'unchaoy: Bizda shunday shodon bolalik baxtli, zavqli kunlarni ta'minlab bergan Vatanimiz tinch – farovon bo'lsin.

Gulxanjon: Ota-onamiz baxtimizga omon bo'lsinlar.

III-o'quvchi: Baxtli bolaligimiz,

Uchun Vatanimizdan.

Yurtboshimizdan cheksiz

Minnatdormiz.

IV-o'quvchi: O'sib, ulg'ayib ota-onamizga, Vatanimizga, avlod – ajdodlarimiz yuzini yorug' etib ularga munosib farzand bo'lishga harakat qilamiz.

Beshinchi bosqich: Baholash

Oltinchi bosqich: Uyga vazifa.

Baxtli bolalik, shod, farovon hayotimiz madhini ta'rifini mazmun mohiyatini anglash.

7. Mavzu: O'qiyimiz, o'ynaymiz ozod Vatanda.

Darsning maqsadi:

Ta'limiy maqsad: Axloqoy salohiyatlarini boyitib o'qish. O'ynab ozod Vatanda baxtli bolalik zavqini surish mazmunini anglash.

Tarbiyaviy maqsad: A'lo hulqi, a'lo baholarga o'qib ona Vatan ishonchini oqlash.

Rivojlantiruvchi maqsad: Ozod, obod, mustaqil Vatanda o'qiyimiz, o'ynab zavqlanib farovon hayot kechiramiz.

Dars turi: Klaster.

Dars tipi: Noan'anaviy dars, sayr.

Dars jihozi: "Ozod Vatan" bukleti.

Dars qahramonlari: Sog'lomjon, Polvonjon, G'olibjon, boshlovchi.

Darsning borishi:

Birinchi bosqich – Tashkiliy qism.

Darsga tayyorlanish.

Sog'lom bola me'yorlari.

1. A'lo baho, a'lo hulqli bo'lish
2. Sog'lom fikrli, barkamol bo'lish
3. Jismonan sog'lom, baquvat bo'lish

Boshlovchi: Sog'lom bola yilida salomatlik haqida maqol o'rgandingizmi?

1. Sog' tanda sog'boyliging.
2. Salomatlik tuman boylik

O'qituvchi: Raxmat aziz bolajonlar.

Ikkinchi bosqich – O'tgan mavzuni mustaxkamlash.

G'olibjon: Keling do'stlar Qambar otaning "Polvonman" she'rini ifodali o'qiyimiz.

I-o'quvchi:

Polvonman, polvonman,
Kuchli deb nom olganman.
Bilaklarimga qarang,
Mushaklarim tap-tarang.

II-o'quvchi:

Mardlar halol kurashar
Kurash menga yarashar.
Jasur, botir yuragim,
Yerga tegmas kuragim.

O'qituvchi: O'qishda a'lo baholarga, o'qish bilan birga sport turlari bilan ham shug'ullaning. O'qib – o'ynab baquvvat, aqlan va jismonan sog'lom bo'lishga harakat qilinglar.

Uchinchi bosqich: Yangi mavzu bayoni.

"So'z ichidan so'z tuzish".

"Sog'lom" guruhi - **Muzqaymoq**

Uzum, muz, qaymoq, maymoq, momo, aya, qoya


"Polvon" guruhi - **Lolaqizg'aldoq**

Lola, laziz, Aziz, dada, dala, alla, g'alla, dog', oq, qiz.

"G'lib" guruhi - **Momoqaymoq**

Momo, aya, qoya, amma, yamoq, maymoq.

O'qituvchi: Tuzilgan so'zlarni ma'nosi, imlo qoidalari hisobga olinib g'oliblar aniqlanadi va rag'batlantiriladi.



O'qituvchi: Milliy o'yinlar – happak, to'ptosh, chillak
Harakatli o'yinlar – “G'ozlar”, “Oq terak”
Didaktik o'yinlar – “Kim tez”, “Zanjir”
Mavsumiy o'yinlaaar – “Qorbo'ron”, “Yaxmalak”, “Varrak”, “Loydan paqildoq”

O'yinlar turlari bilan tanishtiriladi.

G'libjon: Darsdan bo'sh vaqtlaringda,
O'ynab, zavqlanib miyangiz.
Charchog'in chiqaringlar.

Sog'lomjon: “To'p otish”, “Arg'imchoq”, “Xaklamachiq” o'yinlari jismonan sog'lom, baquvvat, kuchli bo'lishingizda juda kata ta'sir ko'rsatadi.

Polvonjon: Do'stlar albatta sport turlari bilan shug'ullaning, chiniqib, polvon, sog'lom, baquvvat bola bo'lasiz.

Beshinchi bosqich: Baholash

Oltinchi bosqich: Uyga vazifa.

O'qib, o'ynab, zavqlanib, baxtli bolalik onlarini o'tkazing. Jismonan, aqlan, sog'lom, barkamol bo'lishga intiling.

8. Mavzu: Quvnoq bolalikni kuylaymiz.

Darsning maqsadi:

Ta'limiy maqsad: O'quvchilar madaniy salohiyatlarini rivojlantirish.

Tarbiyaviy maqsad: Quvnoq bolalik zavqini shodlanib kuylash mazmuni.

Rivojlantiruvchi maqsad: Ijodkor, san'atkor bo'lishga qiziqtirish.

Dars turi: Aralash.

Dars tipi: Ijodiy.

Dars jihozi: Noutbuk "Boychechak" bukleti.

Dars qahramonlari: G'unchaoy, boshlovchi.

Darsning borishi:

Birinchi bosqich – Tashkiliy qism.

Darsga tayyorlanish.

Salomatlik omillari.

1. Tozalikka rioya qilish
2. Orasta, ozoda bo'lish
3. Gigiyena qoidalariga amal qilish

Ikkinchi bosqich – O'tgan mavzuni mustaxkamlash.

Boshlovchi: Keling do'stlar ifodali o'qishni mashq qilamiz.

I-o'quvchi: Ilk saboq R. Farhodiy

Bugun rosa shodlandik,

Maktab tomon otlandik.

Aql-idrok bulog'i,

O'quvchining o'rtog'i.

II-o'quvchi:

Yordam ayamas har on,

Ustoz eng aziz inson.

Ustozga biz havasda,

Taqdim etdik guldasta.

Uchinchi bosqich: Yangi mavzu bayoni.

Vatan - ona

Sen tug'ilgan

Qutlug' xona.

Aziz diyor

Pok ostona

Qiyosi yo'q

Bu yagona.

Sen-u menga,

Vatan –ona

Shunday go'zal,

Ulug' yurtkim.

Tuprog'ini

Ko'zga surtgin.

To'rtinchi bosqich: - Bahs – munozara

Boshlovchi; Vatan madhini kuylasak ado etolmaymiz. Keling maqollar aytamiz

G'unchaoy: Odobli bola

V-o'quvchi: Elga manzur

G'unchaoy: Odibing

VI-o'quvchi: Ziynating -deb maqolni davom ettiradi.

Beshinchi bosqich: Baholash

Oltinchi bosqich: Uyga vazifa.

Qo'shiqlar o'rganib kelish.